



PROFISSIONAL TA'LIMDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH UCHUN SIMULYATSION TA'LIMDAN FOYDALANISH

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi, (
Samarqand , O'zbekiston)*

Ravshanova Qorako'z Uchqun qizi

Annotatsiya: Profissional ta'lim juda ijobiy o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Ushbu o'zgarishlar nafaqat ta'lim sifati va qulayligini oshiribgina qolmay, balki hozirgi sharoitida o'z talabalarni mehnat bozoriga tayyorlamoqda. Kompetensiyani mobillashtirish kasbiy ta'limda innovatsiyalarning integratsiyalashuvi jamiyatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga javob beradigan yuqori sifatli ta'limni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining ongini va kompetentligini rivojlantirish kasb-hunar ta'limi dasturlari uchun bosh tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa keyinchalik ta'lim jarayonining rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ushbu maqolada esa o'quvchilarga rivojlanayotgan mehnat bozorida ko'tarilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni beradi.

Kalit so'zlar : Kompetensiya, innovatsion faoliyat, mehnat bozori , simulyatsiya, muammli vaziyat, jamoaviy ish ko'nikmalari.

Abstract: Vocational education is experiencing a period of very positive changes. These changes not only increase the quality and convenience of education, but also prepare its students for the labor market in the current conditions. Mobilization of competences The integration of innovations in vocational education is essential for ensuring high-quality education that meets the current and future needs of society. The development of the consciousness and competence of each student serves as the main principle for vocational education programs. This subsequently becomes the driving force for the development of the educational



process. This article provides students with the skills and knowledge necessary to advance in the evolving labor market.

Keywords: Competence, innovative activity, labor market, simulation, problem situation, teamwork skills.

Использование симуляционного обучения для повышения активности студентов в профессиональном образовании.

Абстрактный: Профессиональное образование переживает период очень позитивных изменений. Эти изменения не только повышают качество и удобство образования, но и готовят своих студентов к рынку труда. Мобилизация компетенций и интеграция инноваций в профессиональное образование важны для обеспечения высокого качества образования, отвечающего текущим и будущим потребностям общества. Развитие ума и компетентности каждого учащегося служит руководящим принципом программ профессионального образования. Это в дальнейшем станет движущей силой развития образовательного процесса. Эта статья предоставляет студентам навыки и знания, необходимые им для преуспевания на развивающемся рынке труда.

Ключевые слова: Компетентность, инновационная деятельность, рынок труда, моделирование, проблемная ситуация, умение работать в команде.

Kirish Texnologik yutuqlar, yangi metodologiyalar va doimiy moslashish qobiliyati ta'lim mazmunini kundan-kunga qayta belgilab berdi. Kelajakka haqida o'ylaydigan bo'lsak, innovatsiyalar kasbiy ta'lim va ta'lim sohasida asosiy bo'lib qolaverishi aniq. O'quvchilarning iqtidorini saqlab qolish va oshirish, ta'lim tizimining uzluksizligi va muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muhimdir [1].

Kasbiy ta'limning asosiy maqsadi talabalarni mehnat bozoriga kirishga tayyorlash va o'z maqsadlariga erishish uchun kasbiy martaba rivojlantirishdir. Biroq, bozor talablariga moslashtirilmasa, imkoniyatlar kamayadi. Hozirgi kunda mehnat



bozori tibbiyot sohasidagi hodimlarni ko'p talab qiladi . Professional ta'lim muassasalaridagi ta'lim olayotgan hamshiralar laborantlar, farmaseftlar albatta ta'lim jarayonida va bu ta'limni tamomlagach o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishi lozim . Buning uchun o'quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, yangicha metodikalar, innavatsion g'oyalar ta'lab etiladi.

Bu sohasidagi innovatsiyalar, shubhasiz, talabalarning ish bilan ta'minlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi va ularga tobora talabchan mehnat bozorida ijobiy raqobatlashish imkonini beradi.

Sog'liqni saqlashni davolash usullari va tizimlari doimiy ravishda rivojlanib boradi va sog'liqni saqlash sohasidagi o'qituvchilar keyingi avlod mutaxassislarni yaxshiroq tayyorlash uchun innovatsion o'qitish usullarini izlashlari kerak. Tibbiy ta'limning an'anaviy ma'ruzaga asoslangan yondashuvi sog'liqni saqlash ta'limining yanada zamonaviy, qiziqarli usullari bilan to'ldirilmoqda va ba'zan almashtirilmoqda. Ushbu zamonaviy strategiyalar nafaqat o'rganishni kuchaytiradi, balki talabalarni bugungi sog'liqni saqlash muhitining ko'plab muammolariga qarshi turish haqidagi fikrlarni shakllantiradi [2].

Asosiy qism

Hozirgi kunda sog'liqni saqlash sohasida ta'limdagi eng muhim usullardan biri simulyatsiyaga asoslangan ta'limdan foydalanishdir. Bu usul talabalarga real klinik stsenariylarni taqdim etib, nazariy bilimlarni asosan amaliy, yani muhitda qo'llash (mulyajlar , barcha turdagi amaliy jihozlardan foydalangan holda) imkonini beradi. Talabalar zarar etkazishdan qo'rqmasdan protseduralarni bajarishlari, o'zlarining ishonchlari va malakalarini oshirishlari mumkin. Bu jarayonda talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan yangi bilimlar, bilimlarni yonidagilar bilan muhokama qilish va muammolarni hal qilishga qaratilgan yana bir innovatsion yondashuvlar yuzaga keladi.

Simulyatsion ta'limda talabalar asosan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun harakat qiladi , ta'lim jarayonida nazariy bilimlar amaliy jarayonlar misolida ko'rsatib berish ta'lab etiladi . Talabalarga har qanday vaziyatda erkin fikrlashi ,




bilimlarini amalda qo'llay olishi, muammoli vaziyat yuzaga kelganda ijobiy fikrlay olish qobiliyatini yuzaga chiqarish, innovatsion go'yalar yodga olish ta'lab etiladi [3].

Agar biz dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanib talabalarning kompetentligini oshirmoqchi bo'lsak, biz an'anaviy faqat nazariy bilimlarga asoslangan darslardan biroz chetlashimiz lozim.

Profissional ta'lim muassalarida nazariyani so'rovga asoslangan o'rganish usullarini targ'ib qiladigan amaliyotga bog'lasak. Misol uchun talabalar guruhlariga bo'linadi va haqiqiy hayot senariylarini taqlid qilish uchun klinik holatlar taqdim etiladi. Keyinchalik bu talabalar guruhlari differensial tashxislar, boshqaruv strategiyalari va kelajak rejalarini ochish uchun ishni muhokama qilish va tahlil qilish uchun bir jamoa bo'lib ishlaydi. Talabalarga bemorning tarixi, hozirgi kasalliklari belgilari, alomatlari, shuningdek, klinik va laboratoriya topilmalari taqdim etilgan haqiqiy holatlarni o'rganish imkoniyati beriladi [4]. Bu usulda aniq o'quv maqsadlari bilan katta hajmdagi mavzularni qamrab oladi va klinik bilimlarni, yaxshilangan jamoaviy ish, klinik ko'nikmalar va amaliyotga asoslangan xatti-harakatlarni yaxshilaydi. Talabalar o'zlarining o'rganishlari, izlanishlari va tengdoshlariga yechimlarni taqdim etishlari uchun mas'uldirlar. Guruhlarda ishlash muloqot ko'nikmalarini va jamoaga asoslangan sog'liqni saqlash sharoitida samarali ishlash qobiliyatini oshiradi [5].

Talabalarga ko'plab klinik vaziyatlar haqida ma'lumotlar berish va talabalarni guruhlariga bo'lib bu muammolarni muhokama qilish va yechim topishga undash lozim. Bu orqali biz talabalar o'rtasida hamkorlik, o'zaro fikr almashinish va jamoaviy holatda ishlash kompetentligini oshiradi. Talabalar orasida faol muloqot muhiti tabiiy ravishda yuzaga keladi, jammoaviy fikrlash qobiliyati oshadi. Bu usul o'qituvchini talabalar bilan savol – javoblari, fikr almashinuvi, muhokamalari va interaktiv vaziyatlardan chiqish holatlari o'z ichiga oladi. Simulyatsion ta'lim dasturlari, ta'lim sifatini oshiradi, talabani qiziqtiradi, jamoaviy fikrlashga undaydi va nazariy bilimni ko'proq amaliy holatga tadbiq etishga undaydi.

Simulyatsion ta'lim jarayonida tashkil etiladigan darslar sxemasi



Xulosalar.

Stimulyatsion ta'lim talabalarni muammolarni aniqlash va ularni hal etish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Bu o'z navbatida, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va klinik vaziyatlarda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Guruhli muhokamalar va interaktiv o'qitish usullari orqali talabalar o'rtasida jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Bu, tibbiy amaliyotda muhim ahamiyatga ega, chunki hamshiralar ko'pincha jamoada ishlashlari va bemorlar bilan muloqot qilishlari kerak. Talabalar bunday muhitda o'zaro fikr almashish, hamkorlik qilish va birgalikda qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Tibbiy ta'limni rivojlantirishda simulyatsion o'qitishning ahamiyati juda katta. Bu yondashuv talabalarni faol ishtirok etishga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'z-o'zini baholashga, ijodkorlikni oshirishga va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tibbiy ta'lim jarayonida stimulyatsion o'qitishni joriy etish orqali biz yuqori sifatli mutaxassislarni tayyorlashimiz mumkin, bu esa tibbiyot sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki stimulyatsion dasturlar talabalar orasidagi jamoaviy fikrlash, muammoli vaziyatlarda interfaol g'oyalar asosida tezlik bilan chiqa olish qobiliyatini oshiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zendejas B1, Brydges R, Wang AT, Cook DA, 2013.
2. Alonso F., López G., Manrique D., Viñes J. M. (2005) An instructional model for web-based e-learning education with a blended learning process approach. British Journal of Educational Technology.
3. Burgess A., Bleasel J., Haq I., Roberts C., *et al.* (2017) Team-based learning (TBL) in the medical curriculum: better than PBL? BMC Med Ed. **17**, 243
4. Hew K. F., Lo C. K. (2018) Flipped classroom improves student learning in health professions education: a meta-analysis. BMC Medical Education. (38), pp. 1–12.
5. **Lee, C., & Kim, S. (2023). "The effectiveness of simulation-based education combined with problem-based learning in medical training." BMC Medical Education.**